

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.M.Kaxarova, D.A.Muxammadaminova	
Dars samaradorligini oshirishda til o'rganuvchilarning o'zlashtirish jarayonini baholash	538
M.V.Nasridinov	
Buyruq nutqiy aktlarining tilshunoslikdagi ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog'liqligi	542
Sh.H.Nuritdinova	
Online english language learning and its promotion	547
M.M.Nurmatova	
Development of intercultural communicative competence	551
M.M.Nurmatova	
The importance of "Face" phenomenon in uzbek and english communication	554
Z.Sh.Pazilova	
Nemis taufen (suvga cho'mish marosimlari) leksik birligining lingvokulturologik tadqiqi.....	557
D.R.Ubaydullayeva	
Nutq so'zlashda qo'rquvni yengish: sabablar va takliflar.....	560
Ш.Ё.Усмонова	
Анализ семантики ландшафтных терминов в узбекском и английском языках и особенности их употребления.....	563
Sh.M.Yusufjonova	
Milliy mentalitet va idiomalar: memis va o'zbek frazalogizmlarining madaniy ta'siri	567
Sh.M.Yusufjonova	
Nemis va o'zbek frazalogizmlarida xalqning dunyoqarashi: madaniyat va tilshunoslik asosida	571
S.A.Yusupova, D.A.Ganiyeva	
Hurmat konsepti va stilistik vositalarning o'zaro uyg'unligi.....	575
F.B.Abduraximova	
Ingliz va o'zbek tillarida okkazional so'zlarning lingvokulturologik xususiyatlari	578
A.O.Oxunov	
Ingliz tilida wh his-hayajon gaplarining turlari va sintaktik vazifalari.....	583
D.K.Jumaniyazov	
Developing language skills and cultural competence in english through films	587
Д.Ш.Ибрагимова	
Эффективность использования театрализации в обучении иностранного языка.....	590
Д.Х.Муротова	
Лингвокультурологическое исследование речевого акта извинения	597
F.B.Abduraximova	
O'zbek va ingliz tillarida affiksatsiya usulida so'z yasalishining o'ziga xos xususiyatlari.....	599
Sh.F.Latipov	
Lingvistik bo'shlinqi to'ldirishning 6 xil yo'li	604
Г.Т.Галимуллина	
Сопоставительный анализ фразеологических единиц с компонентом драгоценные камни и металлы английского и русского языков во фразеосемантическом поле «Доброта»	608
M.A.Ahundjanova	
Foreign languages and their teaching methodologies	611
F.T.Raximova	
Nutqiy aktlarni ifodalovchi leksik vositalar	615
Sh.Z.Xolmatov	
The history of argots' origin in english speaking countries, Russian and Uzbekistan	618
T.R.Madinakhan	
Kinoyaning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari ifodasiga nazariy yondashuvlar	623
Z.A.Qochqorova	
O'zbek va ingliz tillarida "To'y – wedding" mavzusidagi paremiologik birliklarning qiyosiy tadqiqi	628
M.B.Yusupova	
O'zbek va ingliz tillarda evfemizatsiyalashgan maqol hamda matallarda milliy madaniy kod tahlili	633



УО'К: 811.111'1+811.512.

BUYRUQ NUTQIY AKTLARINING TIL SHUNOSLIK DAGI IJTIMOIY-MADANIY OMILLAR BILAN BOG'LQLIGI

СВЯЗЬ КОМАНДНЫХ РЕЧЕВЫХ ДЕЙСТВИЙ С СОЦИОКУЛЬТУРНЫМИ В ЛИНГВИСТИКЕ

THE SOCIO-CULTURAL RELEVANCE OF IMPERATIVE SPEECH ACTS IN LINGUISTICS

Nasridinov Muxridin Vasilidin o'g'li 

Farg'onan davlat universiteti inglez filologiyasi kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya

Bugungi kunning dolzarb masalalarini qamrab olgan zamonaviy tilshunoslikning rivojlanib borayotgan sohasi pragmalingvistika haqida nazariy ma'lumotlar bayon etib o'tilgan. Shuningdek, ozbek tilshunosligi, inglez va nemis tillari doirasida berilgan misollar atroficha tahlil qilingan. Nutqiy akt nazariysining o'ziga xos xususiyatlari, "buyruq" nutqiy aktining turli tizimli tillarda izamorfik va allamorfik xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan pragmalingvistika sohasi haqida ma'lumot beriladi. Turli tizimli tillar inglez, ozbek hamda nemis tillarida "buyruq" nutqiy aktini vogelantiruvchi ijtimoiy kontekst omillari, stilistik muvofiqi va ijtimoiy mavqe kabibi pragmalingvistik omillar tadqiq qilinadi. Buyruq nutqiy akti maydonida yotuvchi ko'plab omillar badiiy adabiyotlardan tahlilga tortilgan misollar orgali ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, gender, yosh va boshqa ko'plab komponentlar misollar orgali atroficha tadqiq etiladi va xulosalanadi.

Annotatsiya

Представлены теоретические сведения о прагмалингвистике – развивающейся области современного языкоznания, освещающей актуальные проблемы современности. Также тщательно анализируются примеры, приведенные в рамках узбекского языкоznания и английского и немецкого языков. Рассмотрены особенности теории речевого акта, изоморфные и алламорфные особенности «командного» речевого акта в разных систематических языках. В данной статье представлена информация о области прагмалингвистики, которая является одним из важных направлений современного языкоznания. Изучены прагмалингвистические факторы, такие как факторы социального контекста, стилистическая сочетаемость и социальный статус, которые создают речевой акт «порядка» в разных системных языках – английском, узбекском и немецком. Многие факторы в области командного речевого акта рассматриваются на основе анализируемых примеров из литературной литературы. При этом пол, возраст и многие другие составляющие тщательно исследуются и оформляются на примерах.

Abstract

Theoretical information about pragmalinguistics, a developing field of modern linguistics that covers today's pressing issues, is presented. Examples given within the framework of Uzbek linguistics and English and German languages are also analyzed in detail. The specific features of speech act theory, isomorphic and allomorphic features of the "command" speech act in different systematic languages are considered. This article provides information about the field of pragmalinguistics, one of the important areas of modern linguistics. Pragmalinguistic factors such as social context factors, stylistic coherence and social status that make the "command" speech act possible in different systematic languages English, Uzbek and German are studied. Many factors underlying the field of the command speech act are considered through examples analyzed from fiction. At the same time, gender, age and many other components are thoroughly studied and concluded through examples.

Kalit so'zlar: Buyruq, nutqiy akt, pragmatika, pragmalingvistika, ijtimoiy kontekst omillari, stilistik muvofiqi va ijtimoiy mavqe

Ключевые слова: Команда, речевой акт, pragmatika, pragmalingvistika, факторы социального контекста, стилистическая целесообразность и социальный статус.

Key words: Command, speech act, pragmatics, pragmalinguistics, social context factors, stylistic coherence, and social status

KIRISH

Har qanday jamiyatda so'zlovchi muloqot jarayonida tilning ijtimoiy-madaniy me'yorlari hamda qoidalarini inobatga olishi lozim. Notiqning til imkoniyatlardan samarali tarzda, kontekstga mos ravishda qo'llay olishi kabi masalalar pragmatik kompetensiya atamasi bilan bog'liqidir. Inson nutqiyligi bilan bog'liq barcha masalalar zamonaliviy tilshunoslikning ekstralolingvistika, intralingvistika va komparalingvistika tarmoqlarida o'rganiladi. Muloqot jarayonida ifoda etadigan vazifasiga ko'ra nutqiyligi akt adresant tomonidan adresatga turli belgilar va intonatsiyalar orqali darak, so'roq yoki buyruq kabi maqsadlarni bayon etadi. Ushbu jarayonning aniq va mukammal tarzdagi ijrosi, nutqiyligi aktlarni mohirona illokutiv jarayonga olib kirilishi pragmatik kompetensiya normalariga qay darajada amal qilinishiga bog'liqidir. Pragmatik kompetensiya – bu muloqot a'zolarining kontekst xususiyatlarini inobatga olgan holda tildan o'sha jamiyatga tegishli ijtimoiy-madaniy omillarga amal qilish asosida foydalanish bo'yicha qoidalar to'plamidir [1.21]. Ushbu soha so'zlovchining nutq harakatini tushunish va shakllantirish usulini belgilaydigan muvoqiqlik va xushmuomalalik qoidalarini biliishi va ulardan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini o'zida mujassam etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu lingvistik sohalarda insонning fikri bilan birga uning ruhiy olami ham o'z ifodasini topadi [4.25]. Til taraqqiyotida olimlar tomonidan turlicha qarashlar, faktlar va masalalar munozara maydoniga chiqdi. Tilga semiotik yondashuv natijasi esa pragmalingvistika sohasini vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Pragmalingvistika sohasining asosiy bo'g'ini hisoblangan nutqiyligi aktlar XX asrning 60-70-yillarda J.Ostin, J.Serl, Z.Vendler kabi olimlar tomonidan mantiqiy-falsafiy jihatdan o'rganildi. Ushbu sohaga oid turli xil umumiyy nazariy malumotlar V.Gumboldt, L.Byuller, C.Karsevskiy, E.Benvenist, M.Baxtin, Sh.Balli, P.Yakubinskiy kabi tilshunoslar tadqiqotlarida uchraydi. Nutqiyligi akt nazariyasi muammolari nafaqat tilshunoslar o'tasida balki sotsiolog, psixolog, falsafa hamda mantiqshunos kabi soha vakillari o'tasida ham munozarali masalalardan biri sanaladi [4.122]. Aynan, pragmatik kompetensiyaning ijtimoiy normalari va kontekst nuqtayi nazardan to'g'ri foydalanish tarkibiy qismlari mashhur amerikalik tilshunos olim M.Mursiya tomonidan tadqiq qilinadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tilshunos olim M.Mursiya tadqiqotlari davomida pragmatik kompetensiyaning ijtimoiy normalariga asoslanib har bir jamiyatda uchraydigan umumiy uch omil (*ijtimoiy kontekst omillari, stilistik muvoqiqlik, etnik-madaniy omillar*) bilan izohlaydi [1.41]. Uch asosiy kategoriyada ifoda etilgan omillar tarkibi har bir jamiyatda turlicha qiyofani kasb etadi:

1. *Ijtimoiy kontekst omillari* (*Social contextual factors*). Murojat qiluvchi shaxs muloqot jarayonida tinglovchining yoshi, jinsi, maqomi, jamiyatdagi o'mi, mavqeyi kabi omillar nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda to'g'ri funksiyalar pozitsiyasini tanlashi, grammatik, sintaktik, semantik jihatidan to'g'ri bo'lishi va intonatsiyani o'rinci qo'ya olish qobiliyatini talab etadi. Ushbu omilda so'zlovchi tomonidan bayon etilgan nutqiyligi aktni munosib qo'llanilganligi nafaqat til birliklaridan mukammal foydalana olishga, balki adresantring jamiyatdagi mavqeyiga ham bog'liqidir. Misol uchun, *yosh* nuqtayi nazardan quyidagi misollarni ko'rib chiqish maqsadga muvoqiqdir:

O'zbek tilida: – *Bolalarini o'ylasangchi, tentak! – Bolalarimni deb shu ahvolga tushib o'tiribman-da. – Gapirmaysanmi? Bo'lmasa men ketdim, bor, bilganlarini qillaring. Nima mening boshqa tashvishim yo'qmi? – O'tiring, aka, sal o'zimni bosib olay, o'tiring.* (X.To'xtaboyev. "Mungli ko'zlar")

Nemis tilida: *David, komm schnell nach Hause! Mama, bitte lass mich noch etwas spielen!* (*Devid, uyga tezroq kir! Onajon, iltimos yana biroz o'ynashimga ruxsat bering!*) (Thomas Mann. "Mario und der Zauberer")

Ingliz tilida: Sister: – (*After an hour*) Rony are you still busy with the T.V? Brother: – Yes! I am watching my favorite movie. Sister: – I want to talk to you. Can you please switch off the T.V.? Brother: – Just wait for sometime. The movie is going to end. (*Opa : (Bir soatdan keyin) Roni hali ham televizor bilan bandmisan? Uka: Ha! Men sevimli filmimni tomosha qilyapman. Opa: Men sen bilan gaplashmoqchiman. Iltimos, televizorni o'chira olasanmi? Uka: Biroz kuting. Film tugaydi. (Net explanation)*)

Asarlardan olingan parchalarning o'zbek, ingliz va nemis tilidagi misollarida yosh jihatidan ikki xil shaxslarni uchratish mumkin. Ingliz va nemis tillaridan olingan misollardan ko'rishimiz mumkinki, nutq egalarining yoshi turli darajada ekanligi sabab, buyruq nutqiy akt elementlaridan turlicha foydalanilganini kuzatish mumkin. Ya'ni bu tillarda yoshi kichik shaxs kattaga nisbatan "hurmat" konsepti doirasida ishlataladigan til birliklari, qo'shimchalar va intonatsiyadan foydalanadigan bo'lsa, yoshi katta adresant esa, nisbatan erkin muloqotda bo'ladi. Ushbu qoidalarga rioya qilmaslik kommunikativ jarayonning buzilishiga olib keladi. Ushbu tillarning kishilik olmoshida va kesim yasalishida hurmat tamoyillarining ikki ko'rinishi mavjud bo'lsa, ingliz tilida mutloqo o'zgacha bo'lib, muloqotda har qanday yoshdagagi insonlarga nisbatan bir xil holatda murojaat qilinadi. Ingliz tilida hurmat tamoyillarining turli ko'rinishlari va ulardan foydalanish elementlarini modal fe'llarda uchratish mumkin.

Ijtimoiy kontekst omilining yana bir elementlaridan biri hisoblangan *turli jins* o'rtasidagi illokutiv nutqiy akt ko'rinishi ham bir-biridan farq qiladi. Amerikalik olim M.Vud tomonidan turli gender o'rtasida o'tkazilgan tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, nutqiy akt jarayonida ayol jinsiga mansub so'zlovchi illokutiv maqsadni bayon etishda ko'proq hissiyotlari (emotsiya) bilan birga ifoda etadi. Bu esa buyruq nutqiy akti erkak gender tomonidan aniq va to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirilsa, ayol kishida nutqiy akt emotsiyalarga boy bo'lishini ko'rsatadi[5.75].

1. Ota: *Qo'y bunaqa gaplaringni o'g'lim. Yosh bola emassan, endi hayotga ko'zingni kattaroq ochib qaraydigan payting keldi.*

2. Ona: *Yig'lama, – dedi o'ng qo'li bilan boshim aralash yelkamni silab. O'zingni qo'iga ol, toylog'im!* (X.To'xtaboyev. "Mungli ko'zlar")

Yuqoridagi asardan olingan misollarda ota-onal (qarama-qarshi gender) tomonidan farzandiga qarata aytigan buyruq nutqiy aktlaridan ko'rindaniki, birinchi misolga (*Qo'y bunaqa gaplaringni o'g'lim*) qaraganda, ikkinchi, ayol tomonidan ifodalangan illokutiv nutqiy akt (*O'zingni qo'iga ol, toylog'im!*) emotsiyaga boy tarzda tinglovchiga bayon etilgan.

2. *Ijtimoiy mavqe* (social status). Til jamiyatning bir bo'lagi ekan, undagi har bir jarayon inson omili asosida paydo bo'ladi, shakllanadi va rivoj topadi. Muloqot jarayonida adresant va adresat o'rtasidagi ijtimoiy mavqey nutqiy akt ijrosida uning sintaktik, semantik, grammatik jihatdan va hatto intonatsiyani to'g'ri qo'llay bilish ko'nikmalarini talab etadi[2.370]. Ularning kontekstda to'g'ri qo'llanishi orqali munosib nutq jarayoni vujudga keladi. Chunki har qanday jamiyatda ijtimoiy guruhlar bor bo'lib, har bir qatlama o'ziga xos daraja mavjud. Bu darajalarga mos ravishda nutqiy akt komponentlari tarkib topadi.

O'zbek tilida: "*Ishimiz o'ngidan keldi. Navbatda turgan melisa hammahallamiz Turob aka ekan. Bozorvoy cho'ntagingni kavlama, xafa qilaman! Turob aka "xafa qilaman," degan so'zлами xuddi peshonangdan otib tashlayman, degandek bir ohangda aytdi*" (X.To'xtaboyev. "Mungli ko'zlar")

Ingliz tilida: *The commander's voice turned suddenly stern. "Susan, I'm calling because I need you in here. Pronto." - "I'll be there as soon as I can." - "Make it sooner." Strathmore hung up. (Komandirning ovozi birdan jiddiy tus oldi. "Syuzan, men senga qo'ng'iroq qilayotganimning sababi sen menga bu yerda keraksan." – "Men imkon qadar tezroq boraman." – "Tezroq bajar!" Stratmor go'shakni qo'ydi.)* (Dan Brown. "Digital fortress")

Nemis tilida: - *Chef, bitte erteilen Sie mir die Erlaubnis, wegen dieses Problems nach Berlin zu gehen. – Ok, Komme in 2 Tagen wieder. (- Boss, iltimos, menga Berlinga bu muammo bo'yicha borishimga ruxsat bering. - Mayli, 2 kunda qaytib kel.)* (A.Bürger. "Münchhausens Abenteuer")

Muloqot jarayoni ishtirokchisi bo'lgan illokutiv nutqiy akt egasi mavqe jihatdan kontekstda tinglovchidan yuqori ekanligi, unga keskin buyruq va kuchli baland ohangda urg'u berish imkonini yaratса, qarama-qarshi tomon uchun esa hurmat tamoyillari asosida nutqiy aktini shakllantirish majburiyatini yuklaydi. Yuqorida bayon etilgan misollarning har birida ikki xil mavqedagi adresant va adresatlarning ishtiroki mavjud bo'lib, kontekstda ishtirok etgan shaxs o'zidan mavqe jihatdan yuqori shaxsga buyruq emas, iltimos nutqiy akt mezonlaridan foydalanadi yoki buyruq nutqiy aktining xushmuomalalik elementlariga rioya qilgan holda murojat etadi. Misol uchun o'zbek tilidagi misolda Turop akaning mavqe jihatdan yuqoriligi unga dadil buyruq berish imkonini beradi: "*Turop aka "xafa qilaman," degan so'zлами xuddi peshonangdan otib tashlayman, degandek bir ohangda aytdi*". Ingliz tilidagi misolda ham komandir o'z qo'l ostidagi xodimga hech ikkilanmay ("Make it

TILSHUNOSLIK

sooner") buyruq nutqiy aktini bayon etadi. So'nggi misolda esa, ijtimoiy mavqega ega adresant ruxsat nutqiy akti bilan birga buyruq nutqiy akti orqali adresatga chegara (*Komme in 2 Tagen wieder*) belgilab qo'yadi.

Ushbu komponentlarning yana biri *ijtimoiy masofa* (social distance) bo'lib, u adresant va adresat o'tasida amalga oshiriladigan buyruq nutqiy aktlari ijrosida muhim ahamiyatga egadir. Murojaat qiluvchi shaxs tinglovchi bilan bir-biriga psixologik yaqinlik yoki ijtimoiy masofaga bog'liq ravishda xushmuomalalik kategoriyalariga mos nutqni tanlashi zarur. Ingliz olimi S.Levinson va P.Braun o'z tadqiqotlarda adresant tomonidan yuborilgan nutqiy aktini xushmuomalalik kategoriyasiga asosan *ijobiyligi xushmuomalalik* va *salbiyligi xushmuomalalik* kabi turlarga ajratgan[6,20].

1. *Pass me the salt. (Tuzni menga uzatib yubor.)*

2. *Could you pass me the salt, please! (Tuzni menga uzatib bera olasizmi, iltimos!)*

Birinchi misolda berilgan buyruq illokutiv nutqiy akti so'zlovchining ijtimoiy psixologik yaqin insoniga nisbatan qo'llanilgan bo'lsa, ikkinchi misolda esa ijtimoiy masofa mavjud, ya'nisi notanish shaxsga nisbatan qo'llanilgan. Turli tizimli tillarda ijtimoiy kontekst omillari til bilan chambarchas bog'langan holda tadqiq etiladi. S.Levinson va P.Braun tomonidan nutqiy aktlarning ijobiy va salbiy jihatlari mantiqan to'g'ri tadqiq etilgan. Chunki, so'zlovchi va tinglovchi o'tasidagi mavjud distansiya har qanday muloqotning xushmuomalalik komponentlaridan foydalanish jarayonida adresantga ma'lum bir bosim, masuliyat yuklaydi. O'zaro yaqin munosabatda bo'lgan nutq so'zlashuvchilar (yaqin do'stlar, aka-uka, opa-singil) muloqotida esa erkinlik hukmron bo'ladi. Muloqotda ushbu omillardan to'g'ri va munosib foydalanish so'zlashuvchilar o'tasida do'stona munosabatni o'matish va uni saqlashda muhim omillardan biri sanaladi.

3. *Stilistik muvofiqlik (Stylistic appropriateness).* Ushbu omilda inson psixologiyasining asosiy sohasi hisoblangan xushmuomalalik elementlaridan to'g'ri foydalana olish, vaziyatdan kelib chiqib munosib illokutiv aktini tanlay bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Stilistik muvofiqlik suhbat jarayonida ijtimoiy kontekst omillariga bog'liq holda tinglovchiga nisbatan rasmiy yoki norasmiy ravishda, me'yoriy chegara talablariga mos tarzda adresant o'z maqsadini adresatga bayon etishidir. Masalan:

O'zbek tilida: " – Professor Sherzodga qarab yana jilmaydi: – Sizga bir maslahat: Ko'p kuyunchak bo'lavermang!. Yurak kasalligi aksariyat ikir-chikir tashvishlardan kelib chiqadi" (O'Xoshimov. "Nur borki, Soya bor")

Ingliz tilida: *On the phone: –David? – "It's Strathmore," the voice replied. "Hoping for a younger man?" The voice chuckled. – "No, sir," Susan said, embarrassed. – "David Becker 's a good man. Don't ever lose him." – "Thank you, sir."* (Telefonda: –David? –Bu Stratmor, – javob berdi ovoz. "Yoshroq yigitni kutganmiding?" ovoz kulib yubordi. –Yo'q, ser, – dedi Syuzan xijolat bo'lib.

– David Bekker yaxshi odam. Uni hech qachon yo'qotmagin." – "Rahmat Janob,,

(Dan Brown. "Digital fortress")

Nemis tilida: "Ich möchte dahinten im Garten sitzen!" Dort hatte er nämlich oft mit seinem Vater zusammen Limonade getrunken. "Gut, Junge, gehen wir in den Garten", und setzten sich mit Timm in den Schatten einer dicken alten Kastanie. ("Men ana u yerdagi bog'da o'tirmoqchiman!" U o'sha yerda otasi bilan tez-tez limonad ichardi. – Yaxshi, bolam, kettik, bog'ga kiramiz va Timm bilan katta eski kashtan daraxti soyasida o'tirishdi. (James Kruss. "Timm Thaler")

Yuqoridagi misollarning har birida kontekstdagi barcha omillar va elementlar hisobga olingan holda buyruq nutqiy akti shakllangan. Masalan, o'zbek tilidagi misolda adresant va adresat o'tasida paydo bo'lgan vaziyat illokutiv nutqiy akti iltimos yoki kuchli buyruq shaklida emas, balki maslahat (*ko'p kuyunchak bo'lavermang!*) ma'nosi ifodalangan. Ingliz tilidagi misolda esa, "Don't ever lose him", nutqiy aktining shakllanishida undan avvalgi nutqiy akt (*–David? –"It's Strathmore,*) sabab bo'ladi. Uchunchi misolda ham "Gut, Junge, gehen wir in den Garten," buyruq nutqiy akti yuqorida bayon etilgan adresat istagiga asosan shakllanadi. Muloqot shakllanar ekan, ularni bir butunligini tashkil etishi va har bir nutqiy aktning zanjir holatida bir-biriga bog'lanishi stilistik muvofiqlik asosida paydo bo'ladi.

3. *Etnik-madaniy omillar (Cultural factors).* Turli insonlar o'tasida muloqot jarayoni amalga oshirilar ekan, ma'lum bir til doirasida unga tegishli bo'lgan xalq va jamiyat an'analarini, urchodatlariga

asosan kerakli so'z, ibora va gaplardan foydalanib nutqiy aktlar shakllantiriladi. Misol uchun, o'zbek, rus, nemis kabi tillarda ikkinchi shaxs birlik olmoshining ikki xil ko'rinishi, ya'ni sen (sen\ты\du) va siz (siz\вы\Sie) shakllari va ulardan foydalanish bo'yicha etnik-madaniyat qonun-qoidalari mavjud bo'lsa, ingliz tilida har ikkisi faqatgina bir olmosh (you) orqali ifodalanadi. Shu bois til sistemasi sathlarining grammatik tuzilishi va semantik jihatlarini o'rganishda har bir xalqning yashash tarzi, urf-odatlari, an'analari, milliy qadriyatlarini qonuniyatlarini hisobga olgan holda tadqiq etish bugungi kun zamонави tilshunosligida muhim omillardan biri sanaladi.

XULOSA

Xulosa o'mida shuni aytish kerakki, pragmalingvistikaning nutqiy akt nazariyasi tadqiqotida tilning lingvopragmatik xususiyatlari tadqiqi tilshunoslik taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, buyruq nutqiy aktini adresatga yo'naltirishda bevosita, bilvosita, tag ma'no orqali, xushmuomalalik elementlarining har bir funksiyalarini to'g'ri variantini tanlay bilish va uni turli tizimli tillarda qo'llash kabi lingvopragmatik masalalarning o'rni beqiyosdir. Kommunikativ jarayonda hosil bo'lgan nutqiy akt kontekst bilan uzviy bog'langan holda pragmalingvistikaning eng asosiy o'rganish obyektlaridan biri sanalib, u strukturalizmdan keyingi bosqichda shakllangan antroposentrik nazariyaning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Tilshunoslikning ko'plab sohalari, jumladan, matn lingvistikasi, psixolingvistika, sotsiolingvistika va boshqa shu kabi sohalarining o'zaro bog'liqlikda ish ko'rishi pragmalingvistika sohasi rivojining sifat bosqichiga ko'tarilishini ta'minladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Celce-Murcia M. Rethinking the role of communicative competence in language . In: E.S. Alcon and M.P. Safant (Eds.). Intercultural Language Use and Language Learning. – Springer, 2007. – P. 41-47 .
2. Ishihara N., Cohen A. Teaching and Learning Pragmatics: Where Language and Culture Meet. – London: Pearson, 2010. – 370 p.
3. Celce-Murcia M., Olshtain E. Discourse And Context In Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 200. – 21 p.
4. Ҳакимов М., Газиева М. Прагмалингвистика асослари. Дарслик. – Фарғона: Classic, 2020. – 420 б.
5. Searle J. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 320 p.
6. Stilwell J. Pragmatics. – New York: Routledge, 1999. – 348 p.